



ISSN: 2181-0796
DOI: 10.26739/2181-0796
www.tadqiqot.uz

**TIL, TA'LIM, TARJIMA
XALQARO JURNALI**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД**

**INTERNATIONAL JOURNAL OF
LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION**



Alisher Navoi



**VOLUME 6
ISSUE 1 2025**



TIL, TA'LIM, TARJIMA
6-SON, 1-JILD

ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД
НОМЕР-6, ВЫПУСК-1

**LANGUAGE, EDUCATION,
TRANSLATION**
VOLUME-6, ISSUE-1



TOSHKENT-2025

TIL, TA'LIM, TARJIMA XALQARO JURNALI

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.15662737>

Bosh muharrir: Mirzayev Ibdulla

ff.d., professor (O'zbekiston)

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva Albina
ff.n., dotsent (O'zbekiston)
Boqiyeva Gulandom
ff.d., professor (O'zbekiston)
Bakirov Poyon
ff.d., professor (O'zbekiston)
Dababoyev Hamidulla
ff.d., professor (O'zbekiston)
El'tazarov Jo'siboy
ff.d., professor (O'zbekiston)
Isakova Nodira
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kiselyov Dmitriy
ff.d., professor (O'zbekiston)
Labib Said Mohammad Alem
ff.d., dotsent (Afg'oniston)
Mamatov Abdi
ff.d., professor (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatulla
huquqshunos, dotsent (O'zbekiston)
Mirzohidova Muyassar
ff.d., professor (Qirg'iziston)
Nadir Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)
Pardayev Azamat
ff.d., professor (O'zbekiston)
Qodirova Barno
kotib, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Qulmamatov Do'smamat
ff.d., professor (O'zbekiston)
Rasulov Ravshanxo'ja
ff.d., professor (O'zbekiston)
Safarov Shahriyor
ff.d., professor (O'zbekiston)
Shahobiddinova Shohida
ff.d., professor (O'zbekiston)
Sobirov Anvar
PhD (O'zbekiston)
Tagayeva Sayyora
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ubaydullayeva Maftuna
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Uluqov Nosirjon
ff.d., professor (O'zbekiston)
Umurqulov Bekpo'lat
ff.d., professor (O'zbekiston)
Xasanov Ahmad
mas'ul kotib, PhD (O'zbekiston)
Xayrullahov Xurshidjon
ff.d., professor (O'zbekiston)
Xolova Maftuna
ff.d., dotsent (O'zbekiston)
Yo'ldoshev Qozokboy
p.f.d., professor (O'zbekiston)

Bosh muharrir o'rinnbosari: Ismoilov Salohiddin

ff.n., professor (O'zbekiston)

Ilmiy maslahat kengashi:

Abdiyev Murodqosim
ff.d., professor (O'zbekiston)
Baqoyeva Muhabbat
ff.d., professor (O'zbekiston)
Jabborov Xo'jamurod
ff.d., dotsent (O'zbekiston)
Karimov Suyun
ff.d., professor (O'zbekiston)
Mamatov Abdug'ofur
ff.d., professor (O'zbekiston)
Mo'minov Siddiq
ff.d., professor (O'zbekiston)
Suvonova Nigarabonu
ff.n., dotsent (O'zbekiston)
To'xtasinov Ilhom
p.f.d. (O'zbekiston)
Yoqubov Jamoliddin
ff.d., professor (O'zbekiston)

Sahifalovchi: Shakhray Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.15662737>

Главный редактор:
Мирзаев Ибодулла

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Редакционная коллега:

Абдуллаева Албина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бакиров Пойн
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Этазаров Жулбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Исакова Нодира
PhD, доцент (Узбекистан)
Киселёв Дмитрий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Лабиб Сайд Мухаммад Алем
д.ф.н., доцент (Афганистан)
Маматов Абди
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мирзаев Раҳматулла
юрист, доцент (Узбекистан)
Мирзахидова Муясар
д.ф.н., профессор (Киргизстан)
Надим Мухаммад Ҳумоюн
PhD (Афганистан)
Пардаев Азамат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Кадирова Барно
секретарь, PhD, доцент (Узбекистан)
Кулмаматов Дусмамат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Расулов Равшанхужа
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сафаров Шахриёр
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шахабиддинова Шахида
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Собиров Анвар
PhD (Узбекистан)
Тагаева Сайёра
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаева Мафтунা
PhD, доцент (Узбекистан)
Улуков Насиржан
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умуркулов Бекнурлат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Ахмад
т.в. секретарь , PhD (Узбекистан)
Хайруллаев Хуршиджон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Холова Мафтунা
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Йудашев Казакбай
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:
Исмаилов Салахиддин

к.ф.н., профессор (Узбекистан)

Научный совет:

Абдиев Мурадкасим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Баковева Мухаббат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Жаббаров Ҳужамурод
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Каримов Суюн
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Маматов Абдулғарур
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Муминов Сидик
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Сувонова Нигорабону
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Тухтасинов Илҳам
д.п.н., профессор (Узбекистан)
Яқубов Жамалиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Вёрстка: Шахрам Файзиев

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.15662737>

Chief Editor: Mirzaev Ibodulla

Doc. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)

Editorial Colleague:

Abdullaeva Albina
cand. of phil. sciences, assoc.prof. (O'zbekiston)
Bakieva Gulandom
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Bakirov Poyon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Dadaboev Khamidulla
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Eltazarov Juliboy
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Isakova Nodira
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Kiselyov Dmitriy
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Labib Said Mohammad Alem
doc. of phil. scien. (Afg'oniston)
Mamatov Abdi
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mirzaev Rahmatulla
lawyer, assoc.prof. (Uzbekistan)
Mirzokhidova Muyassar
doc. of phil. scien., prof. (Kirghizistan)
Nadir Mohammad Humoyun
PhD (Afg'oniston)
Pardaev Azamat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Kadirova Barno
secretary, PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Kulmamatov Dusmamat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Rasulov Ravshankhuja
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Safarov Shakhriyor
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Shakobiddinova Shokhida
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Sobirov Anvar PhD (Uzbekistan)
Tagaeva Saypora
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Ubaydullayeva Maftuna
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)
Ulukov Nosirjon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Umurkulov Bekpulat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Hasanov Ahmad
senior secretary, PhD (Uzbekistan)
Hayrullaev Hurshidjon
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Xolova Maftuna
doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)
Yuldashev Kazakbay
doc. of ped. scien., prof. (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor: Ismailov Salohiddin

Cand. of phil. sciences, professor (Uzbekistan)

Scientific Advisory Council:

Abdiev Murodkosim
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Bakaeva Mukhabbat
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Berdaliev Abdulvali
doc. of phil. scien., prof. (Tajikistan)
Jabborov Khojamurod
doc. of phil. scien., assoc.prof. (Uzbekistan)
Karimov Suyun
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Mamatov Abdugafur
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Muminovaliddin
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)
Suvonova Nigorabonu
cand. of phil. sciences, assoc.prof. (Uzbekistan)
Tukhtasinov Ilhom
doc. of ped. scien. (Uzbekistan)
Yakubov Jamoliddin
doc. of phil. scien., prof. (Uzbekistan)

Pagemaker: Shakhram Fayziev

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр. 1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>;
Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

M U N D A R I J A

T I L S H U N O S L I K

1.ABJALOVA MANZURA.....	7
O‘zbek amaliy tilshunosligidagi ba’zi masalalar tadqiqi	
2.RASULOV RAVSHANXO‘JA.....	23
Fe’l asosli gaplarning holat valentligi	
3.SUVONOVA NIGORABONU, ATAULLAEVA DILFUZA.....	31
Matn modalligi referensiya rakursida	
4.RASHIDOVA UMIDA.....	44
O‘zbek tilidagi frazemalarning konnotativ xususiyati	
5.QO‘CHQOROVA SADOQAT.....	61
Zoosimvollar lisoniy voqelanishi: ramziylik, motivatsiya bazasi va etologik yondashuv	
6.TILLABAYEVA ZILOLA.....	76
Samarqand viloyati qarluq shevalari va o‘zbek adabiyoti	
7.ДМИТРИЙ САФИН.....	85
Специфика гастрономической лексики и словообразования в современных немецких лексикографических источниках и социальных сетях	
8.ХОДЖАЕВ КАМИЛХАН.....	96
Философские размышления на страницах повести валентина григорьевича распутина “Живи и помни”	
9.NASIMOVA DILBAR.....	108
Fransuz tilining monosyllabik frazeologik birliklari semantikasiga doir	
10.SADIKOVA BAHORA.....	117
Italiyan maqollariga xos gender qarama-qarshilikning lingvomadaniy aspektlari	
11.HAYITOVA MAHLIYO.....	128
O‘zbek va ingliz tillarida suv leksemasi asosida shakllangan barqaror birliklar (maqollar)ning etnolingvistik tadqiqi	
12.MALLAYEVA ZEBOXON.....	138
Pretsedentlik fenomenining ijtimoiy-madaniy tavsifi	
13.ABDUSAMATOVA NOZANIN.....	150
O‘zbek xalq dostonlari tarkibida qo‘llanilgan frazemalarning turkumlanish masalasiga doir mulohazalar	
14.БАБАКУЛОВ ИСМОИЛ.....	157
Формулы речевого этикета русского и узбекского языков	

15.KASIMOVA ZUXRAXAN.....	166
Farg'ona vodiysi "Kelin salom" qo'shiqlarida obrazlar va ularning tavsifi	
16.МУЛЛААХУНОВА НИЛУФАР.....	175
Кинопедагогика как инструмент формирования русской речи на основе произведений Чингиза Айтматова	
17.ХУДОЙБЕРДИЕВА АСИЛА.....	182
Особенности использования инновационных методов в обучение русского языка и развитии речи	
18.OQBO'TAYEV ELBEK.....	188
Egamanlik davri satirik hikoyalarining tasvir qamrovi	
19.АТАЕВ УЛМАС.....	205
Воспитательная и развивающая место чтения в формирование мышления детей дошкольного возраста	
20.Kojalipesova Periyzat.....	212
O'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi topshiriqlar tuzishda matn turlaridan foydalanish	

Т A R J I M A S H U N O S L I K

21.SINDAROV FERUZ.....	222
Antropomin komponentli frazeologik birliklarning milliy-madaniy semantikasiga doir (fransuz tili materialida)	

Т A Q R I Z

22.MUXITDINOVA BADIA.....	238
El sevgan ustoz	
23.ҚОДИРОВА БАРНО.....	243
Қозоғистонда "Девону луготит-турк" асарининг ўрганилиши	

TIL, TA'LIM, TARJIMA ЯЗЫК, ОБРАЗОВАНИЕ, ПЕРЕВОД LANGUAGE, EDUCATION, TRANSLATION

Rasulov Ravshanxo‘ja
professor, filologiya fanlari
doktori
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
rasulovravshanxo‘ja@gmail.com

FE'L ASOSLI GAPLARNING HOLAT VALENTLIGI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15663090>

ANNOTATSIYA

Maqolada fe'l asosli gaplarning holat valentligi uning agens (subekt) holatini o'xshatish asosida ifodalashi, holat aktanti fe'lli birikmalarning mutlaq tobe komponenti pozitsiyasida qiyos etaloni bo'lib kelishi, qiyos etaloni vazifasida ot, ba'zan sifatdoshlar, asosan, -dek, (-day) qiyos ko'rsatkichlari bilan o'xshatish formasini tuzishi haqida fikr yuritiladi. Bunday hollarda -dek (-day) formanti holat fe'li bilan qiyos etalonini biriktiruvchi vazifa bajaradi, ot (-dek) + fe'l modelli komporativ konstruktsiya shakllanadi. Maqolada komporativ konstruktsianing yuzaga kelishida bo'l, kabi, singari, qatori kabi qiyos ko'rsatkichlarida ham ot, ba'zan sifatdosh bilan qo'llanib, analistik formani tuzadi, qiyoslash jarayoni amalga oshadi

Kalit so'zlar: fe'l ,holat valentligi,ot sifatdosh, qiyos ko'rsatkichlari, formant

Rasulov Ravshankhoja
professor, doctor of
philological sciences
Chirchik State Pedagogical University
Tashkent, Uzbekistan
rasulovravshankhoja@gmail.com

STATUS VALENCY OF VERB-BASED SENTENCES

ABSTRACT

The article discusses the agentive valency of state verbs, which function as predicates in speech. Due to the typical intransitivity of these verbs, the entity expressing agentive valency manifests not only as the subject of the state but also as the object of the state. The logical subject simultaneously acts as both the agent and the object of the state. This is because state verbs are generally intransitive in speech, meaning they do not logically require any object. However, sometimes the realizers of the agentive valency (the logical subject) of state verbs appear not only as subjects but also as separate objects of these verbs. In such cases, the subject and object of state verbs are separately expressed in the sentence. This occurs because, in these instances, state verbs function as transitive verbs.

The study thoroughly analyzes the agentive valency of state verbs from a semantic-syntactic perspective and identifies its distinctive features.

Keywords: verb, agent, subject, object, transitivity, intransitivity, realizer.

Расулов Равшанходжа
профессор, доктор
филологических наук
Чирчикский государственный педагогический университет
Ташкент, Узбекистан
rasulovravshankhoja@gmail.com

СТАТУСНАЯ ВАЛЕНТНОСТЬ ПРЕДЛОЖЕНИЙ, ОСНОВАННЫХ НА ГЛАГОЛЕ

АННОТАЦИЯ

В статье речь идёт о валентности состояния глаголов состояния, которые реализуются в предложении сказуемым. В синтаксических конструкциях слова, реализующее актант состояния обозначает способ осуществления состояния агента путём аналогии. В таких случаях актант состояния глаголов состояния в большинстве случаев реализуется в форме наречий, деепричастий, в именах прилагательных и существительных,

подражательных словах.

Имена существительные, иногда причастия, в функции эталона сравнения употребляются в основном с формантом -дек (-дай) образуя форму уподобления. В формировании компаративной конструкции также участвуют синсемантические единицы как бўл, каби, сингари и қатори

Ключевые слова: глагол, валентность состояния, наречие, деепричастие, имена существительные, подражательные слова, синсемантические единицы.

Holat valentligi realizatorining agens holatini o'xshatish yo'li bilan ifodalashi obyektiv borliqni bilish usullaridan bo'lgan taqqoslashning haqqoniyligi bevosita predmetlarning o'zaro munosabatiga, qiyoslanishiga ko'ra yuz beradi. Taqqoslash jarayonida predmetlar orasidagi o'xhash va farqli nuqtalar aniqlanadi, "o'zlashtiriladi". Shunga ko'ra taqqoslashning ijtimoiy-amaliy ahamiyati beqiyosdir.

Obyektiv borliq "vakillari" orasidagi o'xhash tomonlarning aniqlanishi bevosita ularning o'zaro qiyoslanishi natijasi bo'lib, lisoniy yo'nalishda bunday mantiqiy tahlil qiyosiy (komparativ) konstruktsiya nomi bilan yuritiladi. Demak, holat fe'llarining holat valentligida holat aktanti fe'lli birikmannig mutlaq tobe komponenti pozisiyasida qiyos etalonini bo'lib keladi. Qiyos etalonini vazifasidagi ot, ba'zan sifatdoshlar asosan -dek, (-day) qiyos ko'rsatkichlari bilan o'xshatish formasini (1) tuzadi. Shunga ko'ra u (ot, sifatdosh) qiyoslash jarayonining yetakchisi sifatida semantik jihatdan birlamchi, asosiy bo'lsa, sintaktik-funksional jihatdan doimo tobe komponent pozisiyasida bo'lishi, ravish holi ekanligi, muayyan harakat va holat (rema) bilan bog'lanishiga ko'ra konkretlashishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham u hokim komponentda (fe'lida) ifoda topgan agens holatining qay tarzda bajarilishini o'xshatish yo'li bilan anglatadi. Bunda "o'xshatish" formasi –dek,(-day) affixi yordamida yasaladi va narsa yoki shaxsni belgi, harakat va sh.k. jihatdan -dek affiksli so'z bildirgan narsaga, shaxsga o'xshatadi, o'xhashligini bildiradi (2). shunga ko'ra u agens xolatining qay tarzda bajarilishini anglatuvchi nokomparativ konstruksiyalardan farq qiladi. -dek (day) formanti holat fe'li bilan qiyos etalonini biriktiruvchi vazifa bajaradi, ot (dek) +fe'l modelli komparativ konstruksiyanı shakllantiradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, komparativ konstruktsiyani tuzishda ba'zan bo'l, kabi, singari, qatori kabi sinsemantik birliklar (qiyos ko'rsatkichlari) ham ot, ba'zan sifatdosh bilan analistik formani tuzadi. Ayni vaqtida bu nutq birligi (analitik forma) qiyos etalonini vazifasida keladi. Demak, ushbu qiyos ko'rsatkichlari ma'nosi -dek, (-day) formanti kabi komparativ konstruksiya komponentlari ma'nolarini o'zaro bog'lash "xizmatini" o'taydi

Xullas, sintetik va analitik formalı komparativ konstruksiyalarda (3) agens holatining qiyos etalonida kuzatilgan predmet bilan o'xhashligi qayd etiladi, komparativ munosabat ifodalanadi.

O'zbek tilidagi "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "obrazli", "biologik", "fiziologik" va "psixik" integral semali holat fe'llarining holat

aktantini reallashtiruvchi so‘z agens holatining qay tarzda kechishini o‘xshatish yo‘li bilan ifoda etadi. Bu holda “davomli”, “harakat natijasi”, “ijro”, “obrazli”, “biologik”, “fiziologik” va “psixik” integral semali holat fe’llarining qiyos etaloni vazifasidagi holat aktantini anglatuvchi so‘z -day (dek) qiyoslash ko‘rsatkichi bilan keladi. Shu jihatdan ushbu tip komparativ konstruksiyalarda komparativ munosabat kabi, singari, ayniqsa, bo‘l, qatori variantli komparativ konstruksiyalarga nisbatan kuchli, ortiq darajada qayd etiladi. Chunki -day, (-dek) affiksli so‘z formalarida o‘xshatish ifodasining yaqqol, aniq bo‘lishi bevosita ushbu ko‘rsatkichlarning uzial, til birligi sifatida o‘xshatish ma’nosiga egaligidan kelib chiqadi. Ular shu ma’nosiga ko‘ra mustaqil sanaladi.

“Davomli” integral semali turmoq holat fe’linig qiyos etaloni pozitsiyasidagi holat aktantini qayd etuvchi so‘z “yosh kabi” ifodasini beradi. So‘z birikmasida agens holati suyuqlikka (yoshga) o‘xhatiladi. Masalan: Bulutlarga yondosh osmon ostida kiprikdagи yoshday turibdi dorboz (A.Oripov). Ko‘rinadiki, “yosh kabi” semasi klasema bo‘lishiga ko‘ra holat fe’lli komparativ konstruktsiya tuziladi.

Qotmoq “harakat natijasi” integral semali holat fe’lining qiyos etaloni pozitsiyasidagi holat ishtirokchisi sifatida "tarasha kabi" keladi. Komparativ konstruksiyada agens holati tarashaga o‘xhatiladi. Komparativ konstruksiya "tarasha kabi" klassemasiga ko‘ra tuziladi. Masalan: qo‘llari tarashadek qotgan (O.Muxtoro

Saqlamoq “ijro” integral semali holat fe’lining qiyos etaloni pozitsiyasidagi holat aktanti "jon kabi" bo‘lib, uning realizatori agens holatining sodir bo‘lishini jonga o‘xhatadi. Komparativ birikma komponentlari "jon kabi" klassemasiga o‘zaro bog‘lanadi. Masalan: Shu ko‘k, shu yer sen bilan qondosh, birga yayra joningday saqla (Zulfiya).

Tovlanmoq “obrazli” va qizarmoq “fiziologik” integral semali holat fe’llarining qiyos etaloni vazifasidagi holat aktantini qayd etuvchi so‘z,-day,(-dek) qiyoslash ko‘rsatkichi bilan keladi. Qiyosiy konstruktsiya agens holatining o‘simlikka (gulga) o‘xhash holda kechishini bildiradi. Relyativ birikma "lola kabi" klassemasiga ko‘ra tuziladi. Masalan: Uning egnidagi qizg‘ish batist ko‘ylagi loladek tovlanadi (N.Yokubov). Unga birov qarab turmagan bo‘lsa ham ko‘zi loladek qizardi (M.Ismoiliev).

Yonmoq, chaqnamoq va so‘nmoq “obrazli” integral semali holat fe’llarining kiyos etaloni pozitsiyasidagi holat ishtirokchisining realizatori "O‘t kabi" ma’nosni bilan keladi. Komparativ nutq birliklarida agens holati o‘tga o‘xhatiladi. "O‘t kabi" semasi klasema vazifasini o‘taydi. Masalan: Qo‘llari qadoqlangan, ko‘zları o‘tday yongan (G.G.‘ulom). Uning ko‘zları o‘tday chaqnadi (O.Rahimov). Zaldagi shovqin suv sepilgan o‘tdek so‘nadi (N. Yokubov).

“Obrazli” ko‘pchimoq holat fe’lining qiyos etaloni pozitsiyasidagi so‘z (holat aktanti) "xamir kabi", pishmoq holat fe’lining holat aktanti "halim kabi", jilmaymoq holat fe’lining holat aktanti "go‘dak kabi", qotmoq holat fe’lining holat aktanti "tosh kabi" va "haykal kabi" ifodasi bilan qatnashadi. Qiyosiy

konstruksiyalarda; a) agens holati xamirga o'xshatiladi. Masalan: ...yer xamirdek ko'pchigan (Mirmuhsin); b) agens holati ruhiy holatdagi bolaga o'xshatiladi. Masalan: Ko'ryapsanmi, qanday yasharmish olam, beparvo go'dakday jilmayadi jim (A.Oripov); g) agens holatining toshga va haykalga o'xshashligi anglashiladi. Masalan: Gulnoraning rangi uchdi, hovli o'rtasida toshday qotdi (Oybek). Toshday qotdim o'shal oni bir toqatdan ayrılib (A.Oripov). U sexda yuz bergen falokatni qorovuldan eshitib, darvoza oldida haykaldek qotdi (N.Yoqubov). Demak, komparativ munosabatli so'z birikmasi komponentlarining bog'lanishida "xamir kabi", "halim kabi", "go'dak kabi", "tosh kabi" va "haykal kabi" semalari klassema vazifasini o'taydi.

Holat fe'lining holat valentligini reallashtiruvchi otdan iborat qiyos etalonini ellipsislanib, uning tarkibidagi komparativ ko'rsatkich qiyos etalonining atributiv formali tobe komponentiga (determinatga) mantiqiy ravishda ko'chib o'tadi. Ellipsisga uchragan asosiy qiyos etalonini ma'nosi uning tobe komponentida ifodalanadi. Anig'i, sifatdosh atributiv tabiatiga ko'ra muayyan sintaktik pozisiyada predmetni bildirish imkoniga ham ega bo'ladi. Chunki aniqlash jarayonida bevosita muayyan predmet nazarda tutiladi. Bizningcha, shunga ko'ra qator manbalarda sifatdosh substansivatsiyasi alohida tilga olinadi. Demak, sifatdosh qiyos ko'rsatkichli so'z formasida bevosita qiyos etalonini bo'ladi, holat fe'lining holat aktantini tashuvchi sanaladi. Asosiy qiyos etalonini muayyan nutq birligiga o'tishiga, ko'chishiga ko'ra u muayyan sintaktik konstruktsiyada - nutqiy vaziyatda ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Aytilganlarga ko'ra "obrazli" qotmoq fe'lining holat aktantini ko'rsatuvchi so'z "sehrlangan odam kabi" ma'nosi bilan keladi. U agens xolatining qayd etilgan shaxs holatiga o'xshashligini bildiradi. Komparativ konstruksiya a'zolari "sehrlangan kabi" klassemasiga ko'ra o'zaro birikadi. Masalan: Ular sehrlangandek joyida qotibdi (S.Yusupov).

"Biologik" qizarmoq va "fiziologik" shishinqiramoq holat fe'llarining holat aktanti sifatida "yuzi kabi" keladi. Komparativ konstruktsiyada agens holati muayyan a'zoga o'xshatiladi. Qiyosiy konstruksiya birlklari "yuzi kabi" klassemasiga ko'ra o'zaro bog'lanadi. Masalan: O'rik yaproqlari sovuqda o'ynagan yosh bolaning lo'ppi yuziday qizardi. (M.Ismoilov)....yuzi o'sha cholning yuziday shishinqirag'an (O.Muxtorov). «Fiziologik» ko'pchimoq holat fe'lining qiyos etalonini vazifasidagi xolat aktantini reallashtiruvchi so'z "olxo'ri kabi" ifodasi bilan qatnashadi. Komporativ konstruktsiyada agens xolati olxo'riga o'xshatiladi. Masalan: Qovoqlari oludek ko'pchigan (A.Qahhor). Demak, "olxo'ri kabi" semasi klassema sanalishiga ko'ra komparativ konstruksiya tuziladi. "Davomli", "harakat natijasi" va "biologic" integral semali holat fe'llarining qiyos etalonini vazifasidagi holat aktantining realizatori bo'l ko'rsatkichi bilan analitik formani tuzadi. Bunday komparativ munosabat dek (day) ko'rsatkichli turdagidek kuchli, ortiq darajada anglashilmaydi, ya'ni qiyoslash-o'xshatish munosabati kuchsizroq, "xira" ifodalanadi. O'xshatish munosabatining kuchsizligi, bizningcha, birinchidan, bo'l so'zining o'xshatish ma'nosiga nutqiy (okkazional) ega bo'lishidan, ikkinchidan, uning gap

konstruksiyasida ot bilan "so'z birikmasini" tuzishidan, uchinchidan, "birikma" holida predikativ markaz (fe'l) bilan bog'lanib, uning ma'nosida ifodalangan holatning kechish tarzini o'xshatish orqali konkretlashidan sodir bo'ladi, nutqiy fakt sanaladi.

Ko'rindiki, bo'l komponentining o'xshatish formasini tuzishi nutqda yuz beradi. U o'zicha, til birligi sifatida nazarda tutilgan ma'noga ega bo'lmaydi. O'xshatish ifodasi ushbu so'z ma'nosida potensial imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi. Demak, bu semantik imkoniyat nutqda voqelashadi, faollashadi.

"Davomli" turmoq holat fe'lining qiyos etaloni pozitsiyasidagi holat aktanti "bezday", harakat natijasi bo'lgan qotmoq holat fe'lining holat aktanti "metiday", biologik so'lmoq holat fe'lining holat aktanti "hazonday" bo'ladi. Relyativ birikmadan iborat komparativ konstruksiyalarida: a) agens holati bezga o'xshatiladi. Masalan: To'la bez bo'lib turaverdi (M.Ismoilov); b) agens holatining metinga o'xhashligi anglashiladi. Masalan: ... u yoqlarda allaqachon qor yogib, yerlar metin bo'lib qotgan (Mirmuxsin); v) agens holati xazonga qiyoslanadi. Masalan: Xazon bo'lib bogda gullar so'libdi (Alpomish). Demak, komparativ konstruktsiya komponentlarining birikuvi uchun "bezdek", "metindek" va "xazondek" semalari klassema vazifasini o'taydi.

"Harakat natijasi" integral semali holat fe'lining qiyos etaloni vazifasidagi holat aktantini reallashtiruvchi so'z kabi, "obrazli" integral semali holat fe'lining qiyos etaloni vazifasidagi holat aktantini reallashtiruvchi so'z singari(4) qiyos ko'rsatkichlari bilan keladi. Ushbu hollarda komparativ munosabat -dekl, (-day) ko'rsatkichli qiyosiy konstruksiyalar singari yaqqol, aniq qayd etiladi. Shunga ko'ra bunday komparativ konstruksiyalar bo'l qiyos ko'rsatkichli qiyosiy nutq birliklarida o'xshatish munosabatining aniqligi, kuchliligi kabi va singari sinonim ko'makchilarining uzual o'xshatish ma'nosiga egaligidan, nutqda asosan shunday ma'no bilan qatnashishidan kelib chiqadi.

Yorishmoq "harakat natijasi" integral semali holat fe'lining qiyos etaloni vazifasidagi kabi ko'makchili holat aktantini qayd etuvchi "bahordek" ma'nosini ifodalaydi .Bunda holat aktantining realizatori agens holatini muayyan faslga o'xshatadi. "Bahordek" semasi obektli birikma komponentlari uchun klassema vazifasini o'taydi. Masalan: Bir zum bahor kabi yorishdi olam (A.Oripov).

Chaqnamoq "obrazli" integral semali holat fe'lining qiyos etaloni vazifasidagi singari komponentli holat aktantining realizatori "yosh boladek" ma'nosini bilan keladi. Komparativ konstrukstiyada agens holatining yosh bolalarnikiga o'xhashligi ifodalananadi. "Bolalarnikiday" semasi klassema sanaladi. Masalan: Saodatning ko'zlarida xuddi go'daklarniki singari sevinch uchqunlari chaqnadi (Toshkent oqshomi).

"Psixik" integral semali holat fe'lining qiyos etaloni vazifasidagi holat aktantini bildiruvchi so'z qator(5) qiyos ko'rsatkichi bilan kelishiga ko'ra xarakterlanadi. Bunday komparativ konstruksiyalarda komparativ munosabat, biz yuqorida ko'rgan barcha tiplardan farqli, mavhum, noaniq bo'ladi. Shuni ham aytish zarurki, qatori ko'makchisining o'xshatish ma'nosiga egaligi faqat

muayyan sintatik qurshovda - nutqda yuz beradi. Shu jihatdan bunday qiyosiy konstruksiyalar bo‘l qiyos ko‘rsatkichli komparativ konstruksiyalar bilan mos, teng bo‘ladi.

Quvonmoq psixik holat fe’lining qiyos etaloni sifatidagi qatori ko‘makchili xolat aktantini reallashtiruvchi so‘zla tengdoshlari kabi denotati ifodalanadi. Komparativ konstruksiyada agens (shaxs) holati boshqa shaxslar holatiga o‘xshatiladi. Obyektli birikma "tengdoshlari kabi" klassemasiga ko‘ra tuziladi. Masalan: Respublika musobaqasida O‘ktam rekord qo‘yib mukofotlanganda, o‘rtoqlari qatori Ortiq aka ham ich-ichidan quvongan (H.Nazir).

Bo‘rtmoq biologik integral semali holat fe’lining holat valentligi takroriy otta reallashib, komparativ munosabat ifodalashiga ko‘ra xarakterlanadi. Bunda holat aktantini (munchoq kabi) reallashtiruvchi so‘z o‘simlik holatini shakliy jihatdan baholaydi, uning munchoqqa o‘xhashligini anglatadi. Qiyoslang: Olcha novdalari munchoq-munchoq bo‘rtib, ... (Mirmuhsin). Shunisi xarakterliki, ayni komparativ konstruksiyada o‘xshatish munosabati avvalgi tiplarga nisbatan kuchliroq ifodalaniishi bilan, ta’kidlash ottenkasiga egaligi bilan farq qiladi. Bizningcha, bunday komparativ faollik reduplikativ birlik a’zolarining mustaqil ma’noli xarakteridan, kopulyativ munosabatidan, takrorlanishidan, shunga ko‘ra ma’noni kuchaytirishidan, reduplikativ formada fe’l ma’nosidagi agens holatini aniqlash kabilardan kelib chiqadi. Shuningdek, takroriy til birliklarining ma’noni kuchaytirishi bu tip komparativ konstruksiyalarda komparativ munosabatning “o‘sishiga”, ta’kidlanishiga va qat’iylik ottenkasining yuzaga kelishiga olib keladi.

Demak, til birliklarining takrorlangan, kompleks holda o‘z semantik-sintaktik asosiga (remaga) birikib kelishi bunday sintaktik konstruksiyalar semantikasida komparativ munosabatning hosil bo‘lishiga ta’sir qiladi. Agens holati reduplikativ formada ifodalangan predmetga o‘xshatiladi.

1) Obektiv borliq elementlari orasidagi o‘xhash tomonlarning aniqlanishi bevosita ularning o‘zaro qiyoslanishi natijasi bo‘lib,lisoniy jihatdan bunday mantiqiy tahlil komparativ konstruktsiya nomi bilan yuritiladi; 2) Holat fe’llarining holat aktantini reallashtiruvchi so‘z komparativ konstruktsiyada qiyos etaloni bo‘lib keladi. Qiyos etaloni vazifasidagi ot, ba’zan sifatdoshlar, asosan, -dekk, (-day) qiyos ko‘rsatkichi bilan o‘xshatish formasini tuzadi; 3) Komparativ konstruktsiyani shakllantirishda ba’zan bo‘l, kabi, singari va qatori sinsemantik birliklar ham ot bilan analitik formani tuzadi, “birikma” holida qiyos etaloni vazifasini o‘taydi.Sintetik va analitik formalni komparativ konstruksiyalarda agens holatining qiyos etalonidagi predmet bilan o‘xhashligi ifodalanadi. 4) O‘zbek tilshunosligiga oid ko‘pgina manbalarda qatori so‘zi nima uchundir ko‘makchi so‘z sifatida tilga olinmaydi.U avtosemantik so‘z bo‘lishidan tashqari, ba’zan sinsemantik so‘z bo‘la olish qobiliyati bilan ham ajralib turadi; 5) O‘zbek tilidagi "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "obrazli", "biologik", "fiziologik", "psixik" integral semali holat fe’llarining holat aktantini reallashtiruvchi so‘z agens holatining kechishini o‘xshatish yo‘li bilan ifoda etadi

Iqtiboslar/Сноски/References

- 1.Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 1980, 250-б. (Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A., Rasulov I., Doniyorov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T., 1980, 250-b.)
- 2.Komparativ konstruktsiyalar haqida to‘la ma’lumot olish uchun yana qarang. Черемисина М., Сравнительные конструкции русского языка. Новосибирск 1976.
- 3.Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва, 1960, 304-б. (Kononov A.N. Grammatika sovremenennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka. – Moskva, 1960, 304-b.)
- 4.O‘zbek tili grammatikasi 2. – Toshkent, 1976. 230-231-bet.
- 5.Усмонов С., Мирзаев М., Расулов И. Ўзбек тили. – Т., 1978. 147-б. (Usmonov S., Mirzayev M., Rasulov I. O‘zbek tili. – T., 1978. 147-b.)
- 6.Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.;, 1985. 541-565-б. (Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.;, 1985. 541-565-b.)

